

Oydin Abdullayeva

**PARTITURA
O'QISH
FANIDAN**

MA'RUZALAR MATNI

1 Mavzu: Simfonik orkestr va uning partituras

Darsning o'quv maqsadi:

Simfonik orkestr haqida to'liq ma'lumot berish

Tushunchalar va tayanch iboralar:

orkestr, torli cholg'ular, damli cholg'ular, zarbli cholg'ular, partitura.

Asosiy savollar:

- 1. Orkestrning tuzilishi.**
- 2. Orkestr cholg'ularining sahnada joylashuvi bo'yicha turlari.**
- 3. Partitura.**

Asosiy o'quv material qisqacha bayoni

Qadimiy YUNon davlatida xor jamoasi uchun mo'ljallangan taetr sahnasini *orkestr* deb atashgan. Keyinchalik ushbu so'zning ma'nosi kengaydi va o'zgardi.

Hozirgi davrda musiqiy cholg'ularning muayyan tarkibi orkestr deb nomlanadi. Bu tushunchani san'atkorlar jamoasiga qaratib ham ishlatish mumkin. Keng tarqalgan orkestr turlari: opera-simfonik orkestri va xalq cholg'ulari orkestri. Simfonik orkestr turlari quyidagicha:

1. torli orkestr;
2. kichik simfonik orkestr;
3. katta simfonik orkestr.

Simfonik orkestrning tashkillashuvi qardosh cholg'ularning guruhlariga birlashuvidan vujudga keladi. SHunga ko'ra, simfonik orkestrga quyidagi cholg'u guruhlari kiradi:

- A) torli cholg'ular guruhi;
- B) yog'och damli cholg'ular guruhi;
- V) mis damli cholg'ular guruhi;
- G) zarbli cholg'ular guruhi.
- D) tirnama va klavishli cholg'ular.

Torli cholg'ular guruhiga skripkalar, altlar, violnchellar va kontrabaslar kiradi.

YOg'och damli cholg'ular guruhiga fleytalar, goboylar, klarnetlar, fagotlar kiradi.

Mis damli cholg'ular guruhiga valtornalar, trubalar, trombonlar va tubalar kiradi.

Zarbli cholg'ular guruhiga tovush balandligi aniq bo'lgan cholg'ular (litavra, ksilofon, qo'ng'iroqchalar, qo'ng'iroq, chelesta) va tovush balandligi noaniq bo'lgan cholg'ular (uchburchak, kastanettalar, buben, kichik baraban, katta baraban, tam-tam, tarelkalar) kiradi.

Torli va tirnama cholg'ular guruhiga arfa, chelesta, fortepiano va organ kiradi.

Orkestr sahnada cholg'u guruhlar bo'yicha joylashadi. Yakkaxon cholg'ular albatta oldingi qatorda joylashishi kerak. Alohida ohang effektini ifodalash uchun esa ayrim cholg'ular sahnadan tashqarida (kulisa ortida, sahna oratida) joylashishi mumkin.

Jahon musiqa madaniyatiga tegishli bo'lgan orkestr joylashuvlari turlariga ko'ra, torli cholg'ular aksariyat hollar oldingi qatorlardan joy egallaydilar. Bunda birinchi skripkalar dirijyordan chap tomonda, ikkinchi skripkalar esa dirijyordan o'ng tomonda o'tiradi. Dirijorning old tomonida esa altlar va violonchellar joylashadi.

Orkestr joylashuvining boshqa turida esa, birinchi va ikkinchi skripkalar guruh-guruh bo'lib, dirijyordan chap tomonda joylashadi. Bunday hol skripkalardan taralgan ohangning yanada kontsetratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Zarbli cholg'ular har qanday sharoitda sahnaning oxirgi qatorlarida joylashadi.

Orkestr, xor, vokal yoki cholg'u ansambllar uchun yaratilgan musiqiy asarning to'liq va batafsil aks etgan nota yozuvi *partitura* deb ataladi.

Partiturada quyidagicha tartib mavjud:

1. Har partiya alohida qatorda aks etadi;
2. Nota qatorlari muayyan tartibda birin-ketin joylashadi;

3. Nota qatorlari avvaliga umumiy akkolada, so'ngra guruhli akkolada bilan birlashtiriladi;
4. Takt chiziqlari vertikal ravishda joylashgan bo'lib, har bir guruh uchun umumiy htsoylanadi;
5. Damli cholg'ularning partiyalari nota qatorlarida juft-juft bo'lib joylashadi;
6. Nota qatorida ikkita cholg'u partiyasi joylashgan holda, yuqori ovozning tayoqchalarini yuqoriga, quyi ovozning tayoqchalarini pastga qaratish kerak;
7. Unison holati yuz bergan holda, a₂, a₃, a₄ singari belgilardan foydalaniladi;
8. Rim yoki arab harfi cholg'uning tartib raqamini bildiradi: I Ob., III Cor. va h.k.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Torli orkestrning to'liq partitura sistemasini yozish.
2. Kichik simfonik orkestrning to'liq partitura sistemasini yozish.
3. Damli cholg'ularning partiyasida uchraydigan a₂, a₃, a₄, I, II, III, IV belgilarini aniqlash.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan tovushlarni skripka, alt, violonchel va kontrabas uchun flajolet tarzida yozish.
2. Tinglash: T.Qurbonov. Simfoniya №9.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar:

1. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
2. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
3. Римский-Корсаков Н. Основы оркестровки. М., 1947.

Mavzu: Torli cholg'ular

Darsning o'quv maqsadi: **Torli cholg'ular haqida to'liq ma'lumot olish**

Tushunchalar va tayanch iboralar: **kamon, pitstsikato, applikatura.**

Asosiy savollar.

Torli cholg'ular.

Cholg'ularning asosiy xususiyatlari.

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni

Torli-kamonli cholg'ular simfonik orkestrning asosidir. Uning asosiy xususiyatlari: umumiy okrestr ovoz hajmining uluknligi, cholg'uchilarning sonining ko'pligi, Divisi, ya'ni ovozlarining bo'linish imkoniyati mavjudligi.

Skripka torli cholg'ular orasida texnik imkoniyatlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Tessitura jihatidan eng yuqorida joylashadi.

Ochiq simlari: kichik oktavada "sol", 1-oktavada "re, lya", 2-oktavada "mi". Ular kvinta intervali bo'ylab sozlanadi.

Skripkaning ovoz hajmi kichik oktava "sol" tovushidan 4-oktavadagi "sol" tovushigacha.

Alt cholg'usi orkestr diapazonining o'rta qismini egallaydi. Uning ochiq simlari: kichik oktava "do, sol", 1-oktava "re, lya". Ular kvinta intervali bo'ylab sozlanadi. Altning ovoz hajmi kichik oktava "do" tovushidan 3-oktavadagi "do" tovushigacha.

Violonchel cholg'usi orkestr diapazonining quyi va o'rta qismlarini egallaydi. Uning ochiq simlari katta oktava "do, sol", kichik oktava "re, lya". Ular kvinta intervali bo'ylab sozlanadi. Violonchelning ovoz hajmi katta oktava "do" tovushidan 2-oktava "lya" tovushigacha.

Kontrabas cholg'usi orkestr diapazonining eng quyi qatlamini ifodalaydi. Uning ochiq simlari kvarta intervali bo'ylab sozlanadi: "mi, lya, re, sol". Kontrabas transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, notada yozilishiga ko'ra, bir oktava pastda yangraydi.

Torli cholg'ularda ko'plab ijro imkoniyatlari mavjud. Bular:

- *Pitstsikato*, yani barmoq bilan chertib chalish. Pitstsikatoning 2 turi mavjud. O'ng qo'l bilan chalinadigan pitstsikato va chap qo'l bilan chalinadigan pitstsikato.

- Flajoletlar. Flajoletlar obertonlardan hosil bo'lib, skripkaning tovushidan farqli bo'lgan xushtaksim on ovozni beradi. Flajoletlar barmoqni qattiq bosmasdan, simga engil tekkazish yo'li bilan olinadi. Flajoletlarning tabiiy va sun'iy turlari mavjud.

- Kamon bilan aks ettiriladigan turli xil shtrixlar: legato, stakkato, martele, spikkato, detashe va h.k.

- Col legno, kamonning taxta tomoni bilan aks ettiriladigan shtrix.

- Interval, uchtovushlik, akkordlar chala olish imkoniyati. Buning uchun applikatura sohasida bilimlarga ega bo'lish zarur.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. F.Amirovning torli cholg'ular orkestri uchun yaratgan "Nizami" simfoniyasini tinglash va tahlil etish.
2. F.M.Yanovskiyning "Задачи по инструментовке" to'plamidan misollarni torli orkestr uchun cholg'ulashtirish.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan misollarni torli orkestrga moslashtirish.
2. Tinglash: M.Tojiev. Simfoniya №7.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
2. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
3. Римский-Корсаков Н. Основы оркестровки. М., 1947.

1 Mavzu: YOg'och damli cholg'ular

Darsning o'quv maqsadi: YOg'och damli cholg'ular haqida to'liq ma'lumot olish.

*Tushunchalar va tayanch iboralar: **transpozitsiyalanuvchi cholg'ular, juft tarkib, uchlik tarkib.***

Asosiy savollar.

YOg'och damli cholg'ular

CHolg'ularning xususiyatlari

Asosiy o'quv materialli qisqacha bayoni

YOg'och damli cholg'ular 4 ta oiladan iborat:

A) Fleytalar oilasi (katta fleyta, fleyta pikkolo, alt fleyta);

B) Goboylar oilasi (goboy va ingliz surnayi);

V) Klarnetlar oilasi (klarnet inB, klarnet in A, kichik klarnet in Es, kichik klarnet in D, bas-klarnet);

G) Fagotlar oilasi (fpgot va kontrafagot).

Ushbu cholg'ular orkestrda ikkitadan qatnashgan holda, juftlik tarkib, uchmadan qatnashgan holda uchlik tarkib, to'rttadan qatnashgan holda, to'rtlik tarkib deyiladi.

YOg'och damli cholg'ularning ovoz hajmi butun orkestr hajmini egallaydi.

Fleyta cholg'usining ovoz hajmi 1-oktava "do" tovushidan 5-oktava "do" tovushigacha. Uning ovoz hajmi uch qismga bo'linadi. Quyi qismi yumshoq va bahmalsimon xarakterda pp, pp mp, mf dinamikasida yangraydi. O'rta qismi yorqin bo'lib, mf, f dinamikasida yangraydi. YUqori iqsmi yorqin xushtaksimon bo'lib, f, ff, fff dinamikasida yangraydi.

Fleytaning ijro imkoniyatlari juda keng. U sokin kuy yo'llaridan tortib, to texnik murakkab bo'lgan musiqiy matolarni ijro eta oladi. Legato, stakkato, trel, frullato singari usullar shular jumlasidanlir.

Orkestrda 2 ta qatnashadi.

Kichik fleyta transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, yozilishiga nisbatan bir oktava yuqorida yangraydi. YOrqin xushtaksimon yangrash xarakteriga ega.

Kichik fleytaning ijro imkoniyatlari fleytaga xos.

Orkestrda 1 ta qatnashadi.

Alt fleyta katta fleytadan bir oz kattaroq bo'lib, undan deyarli farq qilmaydi. Uninig ovoz hajmi kichik oktavadagi "si" tovushidan 3-oktavadagi "lya" tovushigacha.

Alt fleytaning ijro imkoniyatlari fleytaga xos.

Orkestrda 1 ta qatnashadi.

Goboy cholg'usining ovoz hajmi kichik oktavadagi "si" tovushidan 3-oktavadagi "lya" tovushigacha. YOrqin sharqona koloritga ega.

Goboyning ijro imkoniyatlari katta.

Orkestrda 2 ta qatnashadi.

Ingliz surnayi in F cholg'usining ovoz hajmi va ijro imkoniyatlari goboyga xos. Ingliz surnayi transpozitsiyalanuvchi cholg'u hisoblanib, yozilishiga nisbatan sof kvinta intervaliga pastda yangraydi.

Orkestrda 1 ta qatnashadi.

Klarnet in B va **in A** ovoz hajmi kichik oktava "mi" dan 3-oktava "lya" gacha. Bu cholg'ular transpozitsiyalanuvchidir. Klarnet in B yozilishiga nisbatan katta sekunda intervaliga pastda yangraydi. Klarnet in A yozilishiga ko'ra kichik tertsiya intervaliga pastda yangraydi.

Ushbu cholg'u yorqin tembrga ega bo'lib, uning ijro imkoniyatlari katta.

Orkestrda 2 ta qatnashadi.

Kichik klarnet in Es, kichik klarnet in D. Ushbu cholg'ular transpozitsiyalanuvchidir. Kichik klarnet in Es yozilishiga ko'ra, kichik tertsiya yuqorida yangraydi. Kichik klarnet in D yozilishiga ko'ra katta sekunda yuqorida yangraydi. Ularning ovoz hajmi kichik oktava "mi" dan 3-oktava "lya" gacha.

Orkestrda 1 ta qatnashadi.

Bas klarnet in B ham transpozitsiyalanuvchi cholg'u. U yozilishiga ko'ra, katta nona intervaliga pastda yangraydi. Ovoz hajmi kichik oktava "do" dan 2-oktava "re" gacha. Bas klarnet bas kalitida yoziladi. SHuning uchun unga aksariyat hollarda bas vazifasi topshiriladi.

Orkestrda 1 ta qatnashadi.

Fagot cholg'usining ovoz hajmi kontroktavadagi "si" dan 2-oktava "re" gacha. Texnik jihatdan harakatchan bo'lib, murakkab matolarni chala oladi. SHu bilan birga, fagot sokin kuy yo'llarini ham ifodali ijro eta oladi.

Orkestrda 2 ta qatnashadi.

Kontrafagot transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, yozilishiga ko'ra, bir oktava pastda yangraydi. Asosan garmonik fundament vazifasini bajaradi.

Orkestrda 1 ta qatnashadi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. F. Amirovning "Guliston bayati niraz" simfonik poemasini tinglash va tahlil etish.
2. F.M.YAnovskiyning "Задачи по инструментовке" to'plamidan misollarni kichik simfonik orkestr uchun cholg'ulashtirish.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan misollarni kichik simfonik orkestrga moslashtirish.
2. Tinglash: M.Tojiev. Simfoniya №8.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Зряковский Н. Общий курс инструментовведения. М., 1978.
2. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
3. Римский-Корсаков Н. Основы оркестровки. М., 1947.

Mavzu. Mis damli cholg'ular

Darsning o'quv maqsadi: Mis damli cholg'ular haqida to'liq ma'lumot olish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: transpozitsiyalanuvchi cholg'ular.

Asosiy savollar.

Mis damli cholg'ular

CHolg'ularning xususiyatlari

Asosiy o'quv materialli qisqacha bayoni

Valtorna in F transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, yozilishiga ko'ra sof kvinta intervaliga pastda yangraydi. Valtornalar orkestrda 4 ta qatnashadi. SHunga ko'ra, ular aksariyat hollarda garmonik musiqiy matoni aks ettiradi. YUmshoq, baxmalsimon tembrga ega.

Valtornaning ovoz hajmi kontroktava “si” tovushidan 2-oktava “fa” gacha.

Truba in B transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, yozilishiga ko'ra katta sekunda pastda yangraydi. Trubalar orkestrda 2 ta yoki 3 ta qatnashadi.

Trubalarning ijro imkoniyatlari katta. Ular orkestrda garmonik mato tarkibida ham qatnashishi mumkin, kuy yo'llarni ham yorqin ifodalashi mumkin.

Trubaning ovoz hajmi kichik oktava “mi” tovushidan 3-oktava “re” gacha.

Trombonlarning 3 xil turi bor: alt, tenor va bas. Hozirgi zamon simfonik orkestrda asosan tenor va bas trombonlari ishlatiladi. Tenor trombonlar 2 ta, bas trombon esa 1 ta qatnashadi.

Tenor trombonning xususiyatlari trubaga xos bo'lib, uning yangrashishi trubaning yangrashiga yaqin turadi. Tenor trombon tenor kalitida yoziladi.

Bas trombon tenor trombondan alohida bo'lib, tuba bilan birgalikda nota qatorida joylashadi. Bas trombon bas kalitida ifodalanadi.

Tenor va bas trombonning ovoz hajmi kontroktava “sol” dan 2-oktava “re” gacha.

Tuba orkestrda quyi registrda garmonik poydevorni ifodalovchi cholg'u. U salobatli va kam harakat. Tubaning ovoz hajmi kontroktava “re” dan 1-oktava “fa” gacha.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. D.SHostakovichning №7 Simfoniya'sini tinglash va tahlil etish.
2. F.M.Yanovskiyning “Задачи по инструментовке” to'plamidan misollarni simfonik orkestr uchun cholg'ulashtirish.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan misollarni simfonik orkestrga moslashtirish.
2. Tinglash: M.Tojiev. Simfoniya №4.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
- 2.Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
- 3.Римский-Корсаков Н. Основы оркестровки. М., 1947.

Mavzu. Zarbli cholg'ular

Darsning o'quv maqsadi: Zarbli cholg'ular haqida to'liq ma'lumot olish

Tushunchalar va tayanch iboralar: tovush balandligi aniq cholg'ular, tovush balandligi noaniq cholg'ular.

Asosiy savollar.

Tovush balandligi aniq cholg'ular

Tovush balandligi noaniq cholg'ular.

Asosiy o'quv materiali qisqacha bayoni

Zarbli cholg'ular ikki guruhga bo'linadi: *tovush balandligi aniq cholg'ular, tovush balandligi noaniq cholg'ular.*

Tovush balandligi aniq bo'lgan cholg'ular skripka va bas kalitlarida ifodalanadigan odatiy nota yozuvi orqali aks etadi:

Litavra bas kalitida ifodalanadi. U garmonik fundament vazifasini bajaradi. Orkestrning umumiy crescendo va diminuendo jarayoni aynan litavraning kuchiga binoan yorqin ifodalanadi. Litavra yo'l-yo'lakay sozlana olish imkoniyatiga ega.

Qo'ng'iroqchalar temperatsiyalangan tovushqatorga asoslanadi. SHu bilan birga, u transpozitsiyalanuvchidir. YOzilishiga ko'ra, bir oktava yuqorida yangraydi. Ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 3-oktava "do" gacha.

Ksilofon temperatsiyalangan tovushqatorga asoslanadi. Ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 4-oktava "do" gacha. U transpozitsiyalanuvchi cholg'u bo'lib, yozilishiga ko'ra, bir oktava yuqorida yangraydi.

Tovush balandligi noaniq bo'lgan cholg'ular odatiy nota yozuvi orqali akst etadi. Ularga **uchburchak, kastanettalar, buben, kichik baraban, tarelkalar, katta baraban, tam-tam, tom-tom, fleksaton** va boshqalar kiradi.

Zarbli cholg'ular guruhi simfonik orkestr tarkibida eng katta guruh hisoblanadi. Negaki, uning tarkibiga qadimiy xalqlar musiqa madaniyatidan bizgacha etib kelgan zarbli cholg'ular, shuningdek, zamonaviy estrada zarbli cholg'ulari ham sermahsul ishlatiladi. Ayniqsa, zamonaviy estrada musiqasida zarbli cholg'ularning o'рни katta.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. D.SHostakovichning №12 Simfoniyasini tinglash va tahlil etish.
2. F.M.YAnovskiyning “Задачи по инструментовке” to'plamidan misollarni simfonik orkestr uchun cholg'ulashtirish.

Mustaqil ish topshiriqlari.

3. O'qituvchi tomonidan berilgan misollarni simfonik orkestrga moslashtirish.
4. Tinglash: A.SHnitke. Simfoniya №4

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
2. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.
3. Римский-Корсаков Н. Основы оркестровки. М., 1947.
4. Денисов Э. Ударные инструменты в современном оркестре. М., 1998.

Mavzu.Tirnama va klavishli cholg'ular.

Darsning o'quv maqsadi: Tirnama va klavishli cholg'ular haqida to'liq ma'lumot olish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: Tirnama va klavishli cholg'ular

Asosiy savollar.

Tirnama va klavishli cholg'ular

CHolg'ularning xususiyatlari

Asosiy o'quv materialli qisqacha bayoni

CHelesta klavishli cholg'u hisoblanadi. Aksariyat hollarda uni pianinochilar ijro etadi. U qo'ng'iroqsimon, yorqin tembrga ega. Ovoz hajmi kichik oktava "do" dan 4-oktava "do" gacha.

CHelesta harakatchan cholg'u bo'lib, texnik imkoniyatlari fortepianoga yaqin turadi.

Arfa opera orkestrida 18-asrda paydo bo'lgan bo'lib, simfonik orkestrga 19-asrda kirib keldi.

Arfa torli-tirnama cholg'u bo'lib, fortepiano diapazoniga o'xshash keng qamrovlidir. Uning ovoz hajmi kontroktava "do" dan 4-oktava "fa" gacha.

Arfaning ijro imkoniyatlari juda katta. Uning ijrosidagi eng mashhur musiqiy mato bu glissandodir. U fortepiano ijro etishi mumkin bo'lgan har qanday qiyinchilik darajasidagi murakkab musiqiy matoni ijro eta oladi.

Fortepiano cholg'usi aksariyat hollarda yakkaxon sifatida qatnashadi. Uning musiqiy dunyodagi o'rni ulkan hisoblanadi. Ammo uning simfonik orkestr tarkibidagi roli o'zgachadir. Simfonik orkestr tarkibida u ko'p hollarda zarbli cholg'ularning vazifasiga ko'makchi sifatida, shu bilan birga epizodik cholg'u sifatida qatnashadi.

Organ cholg'usi fortepiano singari yakkaxon sifatida mashhurdir. Simfonik orkestr tarkibida esa uning roli aksariyat hollarda epizodik hisoblanadi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. A.SHnitkening №4 Simfoniya'sini tinglash va tahlil etish.
2. F.M.YAnovskiyning "Задачи по инструментовке" to'plamidan misollarni simfonik orkestr uchun cholg'ulashtirish.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan misollarni simfonik orkestrga moslashtirish.
2. Tinglash: A.Terteryan. Simfoniya №4

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. М., 1978.
2. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. М., 1982.

3. Римский-Корсаков Н. Основы оркестровки. М., 1947.
4. Берлиоз-Штраус. Большой трактат о современной инструментовке и оркестровке. М., 1982.
5. Дмитриев Г. Ударные инструменты: трактовка и современное состояние. М., 1991.

Mavzu. Inson ovozi.

*Darsning o'quv maqsadi: **Inson ovozi haqida to'liq ma'lumot olish.***

*Tushunchalar va tayanch iboralar: **soprano, metstsosoprano, alt, tenor, bariton, bas.***

Asosiy savollar.

Bolalar ovozi

Ayollarovozi

Erkaklar ovozi

Asosiy o'quv materialini qisqacha bayoni

Xonanda ovozi fiziologik tuzilishiga qarab *bolalar, ayollar, erkaklar* ovozigacha bo'linadi.

Bolalar ovozida tovush o'zining engilligi, tiniqligi, xarakterli jarangdorligi va nozikligi bilan ajralib turadi. Bolalar ovozi *diskant* va *altga* bo'linadi. Bolalar xorida diskant ovozga odatda yuqori (soprano) partiyalari topshiriladi. Bolalar xorida alt past partiya hisoblanadi. Bolalarning ovoz xarakterini aniqlashda har bir yoshning o'z xususiyatiga ega bo'lgan "ishchan diapazoni" borligini hisobga olish lozim. Kichik yoshdagi (7-10 yosh) bolalarda umumiy diapazon bir qancha keng bo'ladi: kichik oktava "la" dan 2-oktava "re" gacha. O'rta yoshda (11-13 yosh) "ishchan diapazon" kengaygan bo'lib, 1-oktava "do" dan 2-oktava "mi, fa" gacha. Mutatsiya davrida o'g'il bolalarda diapazon chegarasi keskin o'zgaradi; ovozi bo'g'iqlik, intonatsiyasi noaniqlik, tez charchaydigan bo'ladi. 17-18 yoshlarga kelib, ovoz kuchi kattalar ovozining kuchiga yaqinlashadi va 20 yoshlarga borib to'liqlik shakllanadi.

Ayollar ovozi. *Koloraturali* va *lirik-koloraturali sopranolar* eng engil va harakatchan ovozlar bo'lib, yuqori registrdagi tovushlarning tiniq, jarangdor va yorqinlik xususiyatiga ega. Texnik imkoniyatlari va tembr jihatidan fleyta ovozigacha o'xshab ketadi. Bu ovozlarning ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 3-oktava "fa" gacha.

Lirik soprano ilq, yoqimli tembrga ega bo'lib, yumshoq sadolanadi. O'rta va yuqori registrlarda ta'sirchan ifodali tovushlarga ega. Ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 3-oktava "do" gacha.

Lirik-dramatik va *dramatik soprano* diapazoni to'liq, bo'rttirilgan, kuchli yangrash bilan ajralib turadi. Xorning 2-soprano partiyasini tashkil etadi. Ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 2-oktava "lya" gacha.

Lirik va *dramatik metstso-soprano* dramatik soprano va kontralto o'rtasidagi ovoz bo'lib, quyi registrdagi tovushlarga ega. Tembr jihatidan tiniq, chiroyli hisoblanadi. Ovoz hajmi kichik oktava "lya" dan 2-oktava "fa" gacha.

Kontralto ayollarning eng past ovozi bo'lib, quyuq tembrga ega, asosan quyi registrdan iborat. Ovoz hajmi kichik oktava "fa" dan 2-oktava "mi" gacha.

Erkaklar ovozi. *Tenor-altino* erkaklarning eng baland ovozi bo'lib, engil va nozik tembrga ega. Yorqin falsetti (yuqori registrda) sadolanishi uning o'ziga xos xususiyatidir.

Lirik tenor engil, ravshan, nafis tembrga ega va o'ta ifodaviyligi, texnik jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi. Ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 3-oktava "do" gacha.

Lirik-dramatik va *dramatik tenor* kuchli, to'liq va shirali ovozlar hisoblanib, quyi registrda to'la va aniq yangraydi. Ovoz hajmi 1-oktava "do" dan 2-oktava "lya" gacha.

Xarakterli tenor opera amaliyotida uchraydi. Bu ovozga "chuqur ta'sirchan" xarakterli elementlarga ega kichik partiyalar topshiriladi.

Lirik bariton tenor va bas ovozlari o'rtasidagi ovoz bo'lib, kuychan, ohangdorligi va yumshoqligi bilan ajralib turadi. Ovoz hajmi katta oktava "lya" dan 1-oktava "sol" gacha.

Dramatik bariton yangrashi jihatidan bas ovozigacha yaqin turadi. Unda kuchli jarangdorlik va shiradorlik mujassam. Ovoz hajmi katta oktava “sol” dan 1-oktava “fa” gacha.

Bas-bariton – baland, kuychan bas. Uning past tovushlari kuchsiz, yuqori tovushlari esa erkin va shirali eshitiladi. Ovoz hajmi kontroktava “lya” dan 1-oktava “do” gacha.

Bas ovozinigacha utrlari: bas-profundo, bas-kantanta, bas-buffo, xarakterli bas.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. S.YUdakovning “maysaranigacha ishi” operasini tinglash va ovozlarni tahlil etish.
2. Soprano va metstso-soprano, tenor va bariton orasidagi farqni tushuntiring.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. Lirik soprano va dramatik tenor qatnashgan operalarni aniqlash.
2. Tinglash: J.Verdi. “Traviata” operasidagi qahramonlarning ovozinigacha aniqlash.

Tavsiya etiladigan qo’shimcha adabiyotlar

1. Свешников Л. “Хоровое пение – искусство истинно народное ”. М., 1962.
2. SHarafieva N. Xorshunoslik. Т., 1987.

Mavzu.Elektr musiqa cholg’ulari

Darsning o’quv maqsadi:Elektr musiqa cholg’ulari haqida to’liq ma’lumot olish

Tushunchalar va tayanch iboralar

Elektron musiqa, elektron texnologiyalar

Asosiy savollar.

Elektr musiqa cholg’ulari

CHolg’ulaorning asosiy xususiyatlari

Asosiy o’quv materialigacha qisqacha bayoni

Elektron musiqa cholg’ulari va elektron texnologiyalar ishlatilgan musiqa *elektron musiqa* deyiladi. Elektron texnologiyalar va elektromexanik musiqiy cholg’ularning ishlatilishidan hosil bo’ladigan tovushlar elektron musiqani tashkil

etadi. Elektromexanik musiqiy cholg'ular *tellarmonium, organ Xammonda va elektrogitara*. Sof elektron ohang *termenvoks, sintezator va kompyuter*dan hosil bo'ladi.

Elektrogitara – gitaraning bir turi bo'lib, elektr toki tebranishiga aylanuvchi metall simlar tebranishini echadigan moslamali cholg'u. Echish moslamasidan chiqadigan signal turli xil ovoz effektlarini hosil qilish uchun qayta ishlanishi mumkin. So'ngra dinamikalar orqali ifodalanish uchun kuchaytiriladi. "Elektrogitara" so'zi "elektr gitara" tushunchasidan kelib chiqqan.

Sintezator – bir yoki bir necha ovoz to'lqinlari generatorlarini sintezlash yordamida ovoz hosil qiladigan elektron musiqiy cholg'u. Kerakli ohang elektr signali xususiyatlarining o'zgarishi yoki markaziy protsessor parametrlarining sozlanishi usuli bilan hosil bo'ladi. Klaviaturaga ega bo'lgan sintezator, klavishli sintezator deyiladi. Klaviaturaga ega bo'lmagan cholg'u esa sintezatorli modul deb atalib, MIDI-klaviatura orqali yoki MIDI-gitara orqali boshqariladi. Klavishli sintezator o'ziga o'rnatilgan sekvensorli bo'lsa, ishchi stantsiya deb ataladi. Kompyuter dasturi va kompyuter shaklida bo'lgan sintezator dasturli sintezator deb ataladi.

Termenvoks – rus kashfiyotchisi Lev Sergeevich Termen tomonidan 1919 yili yaratilgan elektr-musiqiy cholg'u.

Organ Xammonda – Lorens Xammond tomonidan 1935 yili kashf etilgan elektr organ. Avvaliga bu cholg'u cherkovlar uchun haqiqiy organ o'rniga sotilgan. Keyinchalik bu cholg'udan blyuz, jaz, rok-n-roll (1960-1970 yillar) yo'nalishlarida ishlatilgan.

Nazorat savol va topshiriqlari

1. Elektr cholg'ularida ijro xususiyatlarini tushuntiring.

Mustaqil ish topshiriqlari.

1. O'qituvchi tomoindan berilgan misolni sintezatorda tuzib tinglash.

Tavsiya etiladigan qo'shimcha adabiyotlar

1. Володин А. Электромusыкальные инструменты. М., 1992.

2. Дмитриев Г. Ударные инструменты: трактовка и современное состояние. М., 1991.